
SEKTOR RAHBARI "MENING YO'LIM" LOYIHASI BAJARILISHINI NAZORAT QILDI

Bugun, 7 iyul kuni tumandagi 2-sektor rahbari, tuman prokurori R. Tillayev tumandagi Ko'mirchi mahallasiga tashrif buyurdi.



Ma'lumki, ushbu mahalla "openbudget" portalining "Mening yo'lim" loyihasida g'olib deb topilgan bo'lib, ayni kunlarda ichki "Ko'mirchi" ko'chasini asfaltlash ishlari davom etmoqda.

Sektor rahbari tashrif davomida yo'l qurilish ishlarining bajarilish sifatini ko'zdan kechirib, mahalla faollari va nuroniylari bilan samimiy muloqot qildi.

Shuningdek, muloqot davomida mahalla guzariga suv minorasi o'rnatish zarurligi taklifi tez kunlarda ijobiy hal qilinadigan bo'ldi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-07 14:43:24